

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PARVOZLAR XAVFSIZLIGINI NAZORAT QILISH DAVLAT  
INSPEKSIYASI  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT XAVFSIZLIK XIZMATI  
QARORI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING FUQARO AVIATSIYASIDA RADIO, TELEAPPARATURA,  
AUDIO VA VIDEO TEXNIKA, KOMPYUTER, PLANSHET VA MOBIL TELEFONLARNI AVIATSIYA  
XAVFSIZLIGI BO'YICHA TEKSHIRISH QOIDALARINING 4-BANDIGA O'ZGARTIRISH KIRITISH  
TO'G'RSIDA**

**[O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 19-iyulda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat  
raqami 2617-2]**

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-martdagi PF-5379-son "O'zbekiston Respublikasining davlat xavfsizligi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Parvozlari xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi va Davlat xavfsizlik xizmati qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Parvozlari xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi va O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatining 2014-yil 27-avgustdagi 33 va 87-son qarori (ro'yxat raqami 2617, 2014-yil 24-sentabr) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-yil., 39-son, 495-modda) bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining fuqaro aviatsiyasida radio, teleapparatura, audio va video texnika, kompyuter, planshet va mobil telefonlarni aviatsiya xavfsizligi bo'yicha tekshirish qoidalarining 4-bandidagi "Milliy" degan so'z "Davlat" degan so'z bilan almashtirilsin.

2. Mazkur qaror "O'zbekiston havo yo'llari" Milliy aviakompaniyasi bilan kelishilgan.

3. Mazkur qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

**Parvozlari xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig'i T. O'LJAYEV**

Toshkent sh.,  
2018-yil 26-iyun,  
43-son

**Davlat xavfsizlik xizmati raisi I. ABDULLAYEV**

Toshkent sh.,  
2018-yil 26-iyun,  
5-son

**Kelishilgan:**

**"O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi Bosh direktori v.b. B. XAKIMOV**

2018-yil 26-iyun

*(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 20.07.2018-y., 10/18/2617-2/1548-son)*